



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 386 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarining raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruhiiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Talabalarda maqsadga intiluvchanlik namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari va shakllanish jarayonlari	335
Babadjanova Saiyora Khushnutovna	
Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatida stress va vaqt bosimini boshqarish usullari	340
Xalilova Soxibaxon Sadikjanovna	
Namoyishli tajriba va laboratoriya ishlari asosida o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik-didaktik ta'minoti	346
Isroilov Shermurod Shamsiddin o'g'li	
Xotin-qizlarda ijtimoiy-psixologik xulq-atvor strategiyalarining migratsiya turiga bog'liq differensial namoyon bo'lishi	353
Axmedova Dildora Olimjonovna	
Rus tilidagi mediamatnlar bilan ishlashda geymifikatsiya elementlarini qo'llash	359
Maxkamov Shoxjaxon Rustambek o'g'li	
Shaxsning o'zini anglash jarayonida refleksiyaning psixologik mohiyati	365
Achilova Durdona	
Bo'lajak oligofrenopedagoglar--ning praksiologik tayyorgarligining tarkibiy tuzilmasi	370
Niyozova Dिल्фуза Rustam qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interaktiv raqamli o'yinlar va vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	375
Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda innovasion surdo-texnologiyalar, neyro-trenajyorlar va faol praksiologik metodlarning interaktiv sinergiyasini joriy etish	380
X. I. Malikova	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV RAQAMLI O'YINLAR VA VIZUALIZATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi

University of business and science, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Taqrizchi: Qodirova M.

Ubs MT, BT va S kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinflar o'quvchilarining mantiqiy va kognitiv tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy interaktiv raqamli o'yinlar hamda vizualizatsiya texnologiyalaridan tizimli foydalanish metodikasini ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini amaliy jihatdan isbotlashdan iborat.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, mantiqiy tafakkur, raqamli o'yinlar, vizualizatsiya texnologiyalari, kognitiv rivojlanish, pedagogik eksperiment, o'qitish metodikasi, tarbiyaviy ahamiyat.

Abstract: The primary objective of this study is to develop a methodology for the systematic application of modern interactive digital games and visualization technologies to enhance logical and cognitive thinking among primary school students and to validate its pedagogical effectiveness through practical implementation.

Key words: primary education, logical thinking, digital games, visualization technologies, cognitive development, pedagogical experiment, teaching methodology, educational value.

Аннотация: Основная цель данного исследования состоит в разработке методики систематического использования современных интерактивных цифровых игр и технологий визуализации для развития логического и когнитивного мышления учащихся начальных классов, а также в практическом подтверждении её педагогической эффективности.

Ключевые слова: начальное образование, логическое мышление, цифровые игры, технологии визуализации, когнитивное развитие, педагогический эксперимент, методика обучения, воспитательное значение.

KIRISH

Zamonaviy global ta'lim makonida shaxsga yo'naltirilgan va texnologik yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimining nihoyatda tezlashishi hamda raqamli transformatsiya jarayonlari yosh avlodning dunyoqarashi, axborotni qabul qilish tezligi va fikrlash formatini tubdan o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda boshlang'ich sinflar ostonasiga qadam qo'ygan o'quvchilar ("Alfa avlodi") tug'ilganidan boshlab sensorli ekranlar, interaktiv vizual vositalar va sun'iy intellekt elementlari qurshovida voyaga yetmoqdalar. Bunday sharoitda an'anaviy ta'lim usullari, ya'ni doska, bo'r va matnli darsliklarga asoslangan darslarni tashkil etish shakllari o'zining jozibadorligi hamda samaradorligini sezilarli darajada yo'qotmoqda. Boshlang'ich ta'lim inson kognitiv qobiliyatlarining poydevori quriladigan davr hisoblanadi. 7-11 yosh oralig'ida bolaning miya po'stlog'i va asab tizimi jadal rivojlanib, mantiqiy operatsiyalarni – tahlil, sintez, taqqoslash, klassifikatsiya (guruhlash) ko'nikmalarini o'zlashtirishga tayyor bo'ladi.

Biroq bu yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlariga ko'ra, ularda yaqqol-obrazli fikrlash ustunlik qiladi. Ya'ni, o'quvchi biror qoida yoki matematik mantiqni tushunishi uchun uni ko'rishi, his qilishi va u bilan bevosita harakat qilishi (manipulyatsiya qilishi) zarur. Mavhum tushunchalar (masalan, matematik o'zgaruvchilar, tabiat

hodisalarining mikroskopik zanjirlari, til qoidalarining sxematik tuzilishi) vizual va interaktiv qo'llab-quvvatlan-masa, bolada darsga nisbatan qiyinchilik, zerikish hamda loqaydlik hissini uyg'otadi. Ushbu muammoni bartaraf etishning eng maqbul yo'li boshlang'ich ta'lim jarayoniga interaktiv raqamli o'yinlar va zamonaviy vizualizatsiya texnologiyalarini tizimli hamda metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilishdir. Raqamli o'yinlar o'quvchi uchun tabiiy bo'lgan o'yin faoliyatini intellektual rivojlanish vositasiga aylantiradi. Vizualizatsiya esa dars mazmunini mavhumlikdan aniqlikka olib chiqib, miyaning har ikkala yarim sharini (mantiqiy-ramziy va hissiy-obrazli fikrlashni) birdek faollashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mantiqiy tafakkurning shakllanish qonuniyatlari va uni o'qitish jarayonida rivojlantirish masalalari klassik hamda zamonaviy pedagogik-psixologik adabiyotlarda keng muhokama qilingan. Kognitiv psixologiyaning asoschisi Jan Piaje o'zining intellektual taraqqiyot nazariyasida 7-11 yoshli bolalarning "aniq operatsiyalar bosqichi"da ekanligini ta'kidlaydi (Piaget, 2001). Piajega ko'ra, bu yoshdagi bolalar mantiqiy fikrlashga qodir, biroq ularning mantiqiy xulosalari faqat real ob'ektlar va ularning vizual tasvirlari bilan bog'langan bo'lishi kerak. Agar topshiriq faqat so'zlar va mavhum belgilar shaklida berilsa, bolaning mantiqiy tafakkuri xatolarga yo'l qo'ya boshlaydi.

L. S. Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi ham ushbu tadqiqot uchun muhim metodologik tayanch hisoblanadi (Vigotskiy, 1984). Vigotskiy bolaning aqliy rivojlanishida tashqi madaniy qurollar va ramziy tizimlarning rolini yuqori baholagan. Bugungi kunda raqamli vizualizatsiya va interaktiv dasturlar aynan shunday madaniy vosita vazifasini bajarmoqda. Kompyuter yoki planshet ekranidagi interaktiv model o'quvchiga o'zining intellektual imkoniyatlari chegarasidan chiqib, yanada murakkab mantiqiy vazifalarni bajarishga ko'maklashadi.

Ta'limni ko'rgazmalilik asosida tashkil etish tamoyillari buyuk pedagog Ya. A. Komenskiyning Buyuk didaktika asaridan boshlab shakllangan. Komenskiy ko'rgazmalilik tamoyilining bilimlarning puxta o'zlashtirilishidagi ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Bugungi kunda vizualizatsiya texnologiyalari ushbu tamoyilni yangi bosqichga ko'tardi.

Zamonaviy tadqiqotchilardan S. L. Rubinshteyn (2002) va P. Ya. Galperin (1985) o'z ishlarida aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini ilgari surganlar. Ushbu nazariyaga ko'ra, har qanday aqliy (mantiqiy) amal dastlab tashqi ob'ektiv harakat (masalan, ekran elementlarini surish yoki birlashtirish) shaklida bajariladi, so'ngra ichki nutqqa o'tadi va nihoyat, to'liq aqliy harakatga (ichki mantiqiy faoliyatga) aylanadi.

O'zbekistonlik olimlardan R. Mavlonova, N. Rahmonqulova va B. To'rayevaning ilmiy izlanishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish usullari yoritilgan (Mavlonova & Rahmonqulova, 2010; To'rayeva, 2019). Biroq ularning ko'pchiligi an'anaviy o'yin texnologiyalariga tayanadi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli didaktika va vizualizatsiyaning metodik mexanizmlari, xususan, maktab amaliyotida keng qo'llanilayotgan LearningApps, ScratchJr, interaktiv simulyatsiyalar va kognitiv xaritalarning mantiqiy operatsiyalar rivojiga ta'siri alohida tizimli tadqiqotni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli-faoliyatli yondashuv hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari tanlab olindi. Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi ilmiy-pedagogik metodlar majmuidan foydalanildi.

- Nazariy metodlar:** mavzuga oid falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish; raqamli ta'lim platformalarining didaktik imkoniyatlarini modellashtirish.
- Empirik metodlar:** maktab o'qituvchilari va o'quvchilari faoliyatini bevosita hamda bilvosita kuzatish; suhbat va so'rovnoma o'tkazish; pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.
- Kognitiv diagnostika metodlari:** bolalarning mantiqiy fikrlash darajasini baholash uchun maxsus moslashtirilgan testlar va topshiriqlar to'plamidan (shakllarni guruhlash testlari, mantiqiy zanjir topshiriqlari) foydalanildi.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari (jami 64 nafar o'quvchi) ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqotning xolisligini ta'minlash maqsadida o'quvchilar ikki guruhga ajratildi.

- Nazorat guruhi** (32 nafar o'quvchi): darslar odatiy darsliklar, standart plakatlari va an'anaviy mashqlar asosida tashkil etildi. O'quvchilarga mantiqiy topshiriqlar asosan doskada va daftarda yozma shaklda bajarildi.



- **Tajriba guruhi** (32 nafar o'quvchi): dars jarayoniga maxsus ishlab chiqilgan interaktiv raqamli o'yinlar (haftada 3 marta, 15-20 daqiqadan) hamda vizualizatsiya dasturlari (animatsion algoritmik sxemalar, dinamik modellar va interaktiv doska topshiriqlari) integratsiya qilindi.

Tajriba uch bosqichda amalga oshirildi.

1. **Aniqlovchi bosqich:** har ikki guruh o'quvchilarining boshlang'ich mantiqiy fikrlash darajasi dastlabki testlar orqali o'lchandi va tahlil qilindi.
2. **Shakllantiruvchi bosqich:** tajriba guruhida muallif tomonidan taklif etilgan uch bosqichli raqamli metodika amaliyotga izchil tatbiq etildi.
3. **Nazorat bosqichi:** yakuniy diagnostika o'tkazildi va guruhlardagi o'zgarishlar dinamikasi qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot yakunida olingan natijalar o'quvchilarning mantiqiy tafakkur darajasi sezilarli darajada o'zgarganligini ko'rsatdi. Ushbu o'zgarishlar to'rtta asosiy mezon bo'yicha batafsil tahlil qilindi.

1. Analitik mantiq va qonuniyatlarni aniqlash qobiliyati

Tajribadan avval har ikki guruhda ham vizual ketma-ketlikdagi qonuniyatlarni aniqlash va yashirin elementni topish darajasi deyarli bir xil edi. O'quvchilarning taxminan 45 foizi berilgan mantiqiy qatorni davom ettirishda xatolarga yo'l qo'yardi. Yakuniy bosqichda an'anaviy usulda o'qitilgan nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich biroz o'sib, to'g'ri bajarish darajasi 52 foizni tashkil etdi. Aksincha, darslarida raqamli vizual matritsalar va harakatlantiruvchi animatsion o'yinlardan muntazam foydalangan tajriba guruhida o'quvchilarning 84 foizi eng murakkab vizual-analitik topshiriqlarni ham mustaqil va tez bajarishga erishdi. O'quvchilar ekrandagi elementlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni to'g'ri aniqlay oldilar.

2. Klassifikatsiya (guruhlash va saralash) ko'nikmasi

Predmetlarni ularning muhim xossalari ko'ra turkumlarga ajratish mantiqiy tafakkurning asosini tashkil etadi. Nazorat guruhidagi o'quvchilar yozma yoki og'zaki shaklda berilgan tushunchalarni tasniflashda ko'p hollarda ikkinchi darajali belgilarga chalg'idilar (masalan, hayvonlarni o'txo'r va yirtqichlarga ajratish o'rniga, tana rangi yoki kattaligiga qarab guruhladi). Ushbu guruhda yakuniy to'g'ri yechish koeffitsiyenti 58 foizni tashkil etdi. Tajriba guruhida esa LearningApps platformasidagi "Klassifikatsiya" raqamli o'yinidan keng foydalanildi. Bunda o'quvchilar ekrandagi turli rasmlarni tegishli "savat"larga sudrab o'tkazishlari lozim edi. Noto'g'ri harakat qilganda dastur xatoni ko'rsatib, o'quvchini qayta o'ylashga undaydi. Mazkur interaktiv vizual qayta aloqa tufayli tajriba guruhida to'g'ri saralash ko'nikmasi 89 foizga yetdi. O'quvchilar ob'ektlarning muhim belgilarini tezroq anglay boshladilar.

3. Fazoviy mantiq va vizual tasavvur

Geometrik figuralar bilan ishlash, ularning fazoviy holatini aqliy aylantirish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng murakkab vazifalardan biridir. Daftardagi ikki o'lchamli (2D) tasvir ko'pincha bolaning tasavvurida uchinchi o'lchamni shakllantira olmaydi. Nazorat guruhida geometrik mantiqiy topshiriqlarning to'g'ri bajarilish darajasi 48 foizdan oshmadi. Tajriba guruhida esa virtual 3D modellash tirish simulyatsiyalari va bolalar uchun mo'ljallangan interaktiv geometrik o'yin dasturlaridan foydalanildi. O'quvchilar ekranda kub yoki piramidani turli tomonga aylantirib ko'rish, uning qirralari va yoqlarini bo'yash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada tajriba guruhidagi o'quvchilarning fazoviy-mantiqiy fikrlash darajasi sezilarli darajada oshib, to'g'ri javoblar koeffitsiyenti 81 foizni tashkil etdi.

4. Algoritmik fikrlash

Algoritm tuzish mantiqiy fikrlashning eng yuqori bosqichlaridan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga reja asosida harakat qilishni hamda oqibatni oldindan ko'ra bilishni o'rgatish muhimdir. Nazorat guruhida algoritmik masalalarni yozma shaklda yechish samaradorligi 50 foizni tashkil etdi. Tajriba guruhida esa Scratch Jr vizual blokli dasturlash muhiti qo'llanildi. O'quvchilar o'zlari tanlagan qahramonni harakatga keltirish uchun mantiqiy bloklar ("oldinga yur", "sakra", "o'ngga buril", "agar to'siq uchrasa, orqaga qayt") ketma-ketligini tuzdilar. Agar algoritmda xatolik bo'lsa, qahramon noto'g'ri harakatlanadi va o'quvchi xatosini darhol ko'rib, uni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur metodika tajriba guruhida o'quvchilarning algoritmik fikrlash ko'nikmalarini 86 foizgacha oshirdi.

Umuman olganda, tajriba guruhi o'quvchilari topshiriqlarni nafaqat yuqori sifatda bajardilar, balki ularning mantiqiy masalalarni yechishga sarflagan vaqti nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 40 foizga qisqardi. Bu esa interaktiv raqamli vizualizatsiyaning boshlang'ich sinflarda intellektual samaradorlikni oshirishdagi yuqori pedagogik salohiyatini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mantiqiy fikrlash jarayonlari raqamli didaktika va vizual stimullar vositasida tashkil etilganda kognitiv yuklama sezilarli darajada optimallasadi. Buning sababi kognitiv psixologiyadagi "ikki tomonlama kodlash nazariyasi" (Dual Coding Theory) bilan izohlanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, inson miyasi axborotni bir vaqtning o'zida vizual va verbal kanallar orqali qabul qilganda, uni eslab qolish hamda mantiqiy qayta ishlash tezligi bir necha barobar ortadi. Uch bosqichli yangi metodik model. Pedagogik kuzatishlar va tajriba natijalari asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning uch bosqichli metodik modeli ishlab chiqildi:

1-bosqich: Kognitiv-vizual kirish → 2-bosqich: Interaktiv-mantiqiy faoliyat → 3-bosqich: Shaxsiy refleksiv loyihalash.

I bosqich. Kognitiv-vizual kirish (Mavhumlikdan reallikka). Darsning dastlabki 5-7 daqiqasida mantiqiy tushuncha mavhum shaklda emas, balki dinamik va harakatlanuvchi model orqali tushuntiriladi. Masalan, tabiiy fan darsida "Suvning tabiatda aylanishi" mavzusida quruq sxemani ko'rsatish o'rniga, o'quvchining o'zi simulyatsiya yordamida quyosh haroratini oshirib, yomg'ir hosil bo'lish jarayonini kuzatadi.

II bosqich. Interaktiv-mantiqiy faoliyat (O'yin orqali tahlil). Dars mazmuni qat'iy mantiqiy qoidalarga ega bo'lgan interaktiv o'yin shaklida tashkil etiladi. Masalan, koordinata o'qini tushuntirishda "Xazinani top" raqamli o'yini orqali robotga "3 qadam yuqoriga, 2 qadam o'ngga" kabi ketma-ket mantiqiy buyruqlar beriladi.

III bosqich. Shaxsiy refleksiv loyihalash. Yakuniy bosqichda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llab, mustaqil mantiqiy mahsulot (kognitiv xarita yoki sxema) yaratadi. Masalan, "Gap bo'laklari" mavzusida gapning egasi, kesimi va ikkinchi darajali bo'laklari o'rtasidagi munosabatni raqamli xarita yordamida mustaqil tuzadi.

O'yin va ta'lim balansi prinsipi. Ushbu metodikani qo'llashda aslo unutilmasligi lozim bo'lgan qoida shundan iboratki, o'yin hech qachon dars mazmunini soyada qoldirmasligi kerak. O'yin darsning maqsadi emas, balki mantiqiy fikrlashni faollashtiruvchi pedagogik vosita hisoblanadi. Shu sababli har bir o'yin darsning kognitiv yuklamasi, mantiqiy tahlil hamda sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur. Raqamli texnologiyalarning tarbiyaviy ahamiyati.

Tadqiqot davomida interaktiv raqamli o'yinlarning ta'limiy funksiyalaridan tashqari quyidagi tarbiyaviy va axloqiy jihatlari ham yaqqol namoyon bo'ldi:

- 1. Jamoaviylik va hamkorlikni rivojlantirish.** Interaktiv doskada "Mantiqiy labirint" yoki guruhli topshiriqlarni birgalikda bajarish jarayonida o'quvchilar bir-birini tinglashni, boshqalarning fikrini hurmat qilishni hamda umumiy maqsad yo'lida jamoaviy mas'uliyatni his etishni o'rganadilar.
- 2. Irodaviy sifatlarni shakllantirish.** An'anaviy darsda xato qilgan o'quvchida qo'rquv yoki ruhiy tushkunlik yuzaga kelishi mumkin. Raqamli o'yinlarda esa xatolarni qayta tahlil qilish va cheklanmagan miqdorda qayta urinib ko'rish imkoniyati mavjud. Bu esa qiyinchiliklar oldida taslim bo'lmaslik va matonatlilik sifatlarini rivojlantiradi.
- 3. Tartib va qoidalarga rioya qilish.** Har bir raqamli o'yin muayyan algoritm va qat'iy qoidalarga asoslanadi. O'quvchi qoidalarga rioya qilmasa, o'yinda muvaffaqiyat qozona olmasligini anglaydi. Natijada unda o'zini o'zi boshqarish va ijtimoiy qoidalarga amal qilish ko'nikmalari shakllanadi.
- 4. Sog'lom raqamli gigiyena va madaniyatni shakllantirish.** Bolalarni raqamli qurilmalardan mutlaqo cheklash amaliy jihatdan samarasizdir. Mazkur metodika planshet va telefonlardan faqat ko'ngilochar vosita sifatida emas, balki bilim olish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish va kognitiv salohiyatni oshirish vositasi sifatida foydalanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy tahlillar va amaliy tajriba-sinov ishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual hamda shaxsiy rivojlanishida zamonaviy raqamli didaktik vositalarning o'rnini beqiyos ekanligini isbotladi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Nazariy jihatdan: Kichik maktab yoshidagi (7-11 yosh) bolalarda yaqqol-obrazli tafakkur ustun bo'lganligi sababli, mavhum mantiqiy tushunchalarni vizual ko'rinishga o'tkazuvchi dinamik raqamli didaktik muhit zarur pedagogik ehtiyoj hisoblanadi.



Metodik jihatdan: Muallif tomonidan taklif etilgan “Kognitiv-vizual kirish – Interaktiv-mantiqiy o‘yin – Shaxsiy refleksiv loyihalash” shaklidagi uch bosqichli model ta’lim jarayonining yuqori interaktivligini ta’minlash bilan birga, o‘quvchilarda tahlil, klassifikatsiya va fazoviy mantiq ko‘nikmalarini izchil rivojlantiradi.

Amaliy jihatdan: Pedagogik eksperiment natijalari raqamli metodika qo‘llanilgan tajriba guruhida o‘quvchilarning mantiqiy topshiriqlarni mustaqil va to‘g‘ri bajarish koeffitsiyenti nazorat guruhiga nisbatan 26–36% ga yuqori bo‘lganligini hamda masalalarni yechish tezligi 1,5 barobarga oshganligini (ya’ni ularni bajarish uchun sarflanadigan vaqt sezilarli darajada qisqarganligini) ko‘rsatdi.

Tarbiyaviy jihatdan: Interaktiv raqamli o‘yinlar jamoaviylik, matonat, intizom, qoidalarga rioya qilish va raqamli madaniyat kabi shaxsiy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Galperin, P. Ya. Metodi obucheniya i umstvennoe razvitiye rebenka [Teaching methods and mental development of the child]. Moscow: MGU, 1985.
2. Ishmuhamedov, R., Abduqodirov, A., & Pardaev, A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar [Innovative technologies in education]. Tashkent: Iste’dod, 2008.
3. Kapp, K. M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-Based Methods and Strategies for Training and Education. John Wiley & Sons, 2012.
4. Komenskiy, Ya. A. Izbrannie pedagogicheskie sochineniya [Selected Pedagogical Works]. Moscow: Pedagogika, 1982.
5. Mavlonova, R., & Rahmonqulova, N. Boshlang‘ich ta’limda integratsiya va innovatsiya [Integration and Innovation in Primary Education]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2010.
6. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 2001.
7. Rubinshteyn, S. L. Osnovi obshchey psikhologii [Foundations of General Psychology]. St. Petersburg: Piter, 2002.
8. To‘rayeva, B. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi [Methodology of Teaching Mathematics in Primary Classes]. Tashkent, 2019.
9. Vygotsky, L. S. Sobranie sochineniy. Tom 4: Detskaya psixologiya [Collected Works. Vol. 4: Child Psychology]. Moscow: Pedagogika, 1984.
10. Vygotsky, L. S. Pedagogicheskaya psixologiya [Educational Psychology]. Moscow: Pedagogika, 1991.
11. Bakhromovich, K. A. The Use of Interactive Visualization Technologies in Organizing Primary School Lessons. European Journal of Research and Reflection in Education Sciences, 2021, 9(3), 45-51.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.